

“TARIX” NI YARATGAN MARDLAR YOHUD “BUYUK G‘ALABA”GA  
QO‘SHILGAN HISSA

Fahrutdinova Nodirabegim Jasur qizi

Tosh.Yangi Asr Universiteti. Filologiya va tillarni o‘qitish (ShMT) 101.24

1-kurs talabasi

+998 93-427-19-27. [ummumanzura@gmail.com](mailto:ummumanzura@gmail.com)

Soliyev Elyorbek Muxammadmo‘sа ug‘li

Ilmiy raxbar.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15390832>

*Annotatsiya. Ushbu maqolada Ikkinci jahon urushi qatnashchilarining Vatan uchun olib borgan kurashlari, ular keltirgan g‘alaba sabab hozirgi tinch-osoyishta hayotga erishganligimiz va mustaqillik yillaridan hozirgacha nafaqat faxrli urush ishtirokchilari, balki, ilm-fan sohasidagi ziyolilar shaxsiyatlarini abadiylashtirish va chuqur izlanishlar olib borishdagi islohotlar haqida yoritildi. Ta’lim orqali yoshlar ongida buyuk tarixni haqiqiy jonlantirish va taraqqiyot sari ilg‘or qadamlar tashlab, ajdodlarimiz ko‘zlagan maqsadga biz erishishimiz-vazifamiz ekanligi yana bir bor ta’kidlab o‘tildi.*

*Kalit so‘zlar: xotira, rag‘batlantirish, sivilizatsiya, empatiya, ta’lim, burch, ehtirom.*

ЛЮДИ, СОЗДАВШИЕ «ИСТОРИЮ», ИЛИ ИХ ВКЛАД В «ВЕЛИКУЮ ПОБЕДУ»

*Аннотация. В статье рассматривается борьба участников Второй мировой войны за Родину, принесенная ими победа, позволившая нам жить в мире и спокойствии, а также реформы, проводимые с годами независимости для увековечения личностей не только славных участников войны, но и деятелей интеллигенции в области науки и проведения глубоких исследований. Еще раз было подчеркнуто, что наш долг – понастоящему возродить великую историю в сознании молодежи посредством образования и предпринять поступательные шаги на пути развития, достигнув цели, поставленной нашими предками.*

*Ключевые слова:* память, поощрение, цивилизация, сочувствие, образование, долг, уважение.

THE MEN WHO CREATED "HISTORY" OR THEIR CONTRIBUTION TO THE  
"GREAT VICTORY"

*Abstract. This article sheds light on the struggles of the participants of World War II for the Motherland, the fact that we have achieved our current peaceful life thanks to the victory they brought, and the reforms that have been carried out since the years of independence to perpetuate the personalities of not only the glorious participants of the war, but also intellectuals in the field of science and conduct in-depth research. It is once again emphasized that it is our duty to truly revive the great history in the minds of young people through education and take progressive steps towards development, achieving the goal set by our ancestors.*

*Keywords:* memory, encouragement, civilization, empathy, education, duty, respect.

“Bugungi ozod va erkin hayot uchun, farzandlarimizning baxti va kamoli uchun biz ularning oldida cheksiz qarzdormiz”

O‘zbekiston Respublikasi  
Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev

Har bir millatning qadri va kelajagi buyuk, istiqbolli bo‘lishi-o‘sha millatning tarixi, xalqining mardonavor kurashi va ajdodlarining vatanparvarligi bilan namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqining tarixi buyuk va faxrli bo‘lgani sababli, hech shubhasiz, kelajagi ham porloq va farovon bo‘ladi. Shu sababli, mustaqillikning ilk yillardan O‘zbekistonda voyaga yetayotgan yoshlarga mustaqillik ne’matining qadrini, uni asrab-avaylashdagi burchlarimizni, shu yo‘lda o‘z jonini fido qilgan buyuklar xotirasiga munosib ehtirom ko‘rsatish kerakligi borasida izchil islohotlar olib borish boshlanib, bugungi kundagacha davom etmoqda. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan 1999-yil 9-may kunini “Xotira va qadrlash kuni”<sup>1</sup> deb e’lon qilinishi so‘zimizning isbotidir. Oradan bir yil o‘tib, ya’ni 2000-yilda Toshkentning Bo‘zsuv sohilida “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui barpo etildi. Majmua tarkibida “Qatag‘on qurbanlari xotirasi” muzeyi va shu nomdag‘i jamg‘arma tashkil etildi<sup>2</sup>.

Inson xotirasi, uning muqaddas Vatandagi aziz o‘rni bugungi kunda har doimgidanda e’zozlanmoqda. Inson qadri ulug‘lanayotgan yurtda qadr topgan, nomi qilgan yaxshi va ezgu amallariga hamohang eslanayotgan, yosh avlod uchun Vatan ne ekanligini o‘z mehnatlari bilan ko‘rsatib bergen insonlarning, urush va mehnat fahriylarining, o‘z umrining katta qismini xalq uchun mehnat qilishga sarflagan, o‘zini yurt farovonligi va tinchligiga bag‘ishlagan fidoiy insonlar xotirasi abadiydir. Ushbu kunda yurtimizda Ikkinci jahon urushining har bir qatnashchisi, front orti mehnat faxriylari hamda mustaqillik yillarda xizmat burchini bajarish chog‘ida halok bo‘lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlarining xotirasi oldida hurmat bajo keltirish, yurtimizda mehr-oqibat, hamjihatlik, insoniylik, bag‘rikenglik va xayr-saxovat muhitini yanada mustahkamlash, yosh avlodni milliy an‘analarimizga sadoqat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida kamol toptirish hamda bu muqaddas ayyomni yuksak saviyada nishonlashga katta e’tibor qaratib kelinmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2024-yilda qabul qilingan “Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag‘batlantirish to‘g‘risida”<sup>3</sup>gi farmoni davlatimiz rahbari bundan bir necha yil ilgari aytgan ana shu fikrlarining amaldagi yana bir tasdig‘i bo‘ldi.

Farmonga muvofiq, o‘tgan yili Ikkinci jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 20 million so‘m miqdorida bir martalik pul mukofoti belgilandi. Fashizm ustidan qozonilgan g‘alabaning 79-yilligi munosabati bilan ushbu pul mukofotlari bugun ham safimizda turib, Vatanimizning obro‘-e’tiborini yuksaltirishga, yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga hissa qo‘shayotgan faxriylarimizga tantanali vaziyatda va bayramona ruhda topshirildi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida “O‘zbekiston tarixini o‘rganish va targ‘ib qilishni yanada rivojlantirish” borasida 77- maqsad qo‘yilgan.

<sup>1</sup> O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni “9-mayni “Xotira va qadrlash kuni” deb e’lon qilish to‘g‘risida”; ; 02.03.1999; PF-2243-son;

<sup>2</sup> Uza.uz; 31.08.2015; Iqtisodiyot; “Ajdodlar xotirasi unutilmaydi”;

<sup>3</sup> O‘zbekiston Respublikasi Farmoni; Toshkent sh., 02.05.2023 yil; PF-65-son;

Zero, “o‘tmishdagi yutuq va g‘alabalardan kuch-quvvat olib, xato va mag‘lubiyatlaridan xulosa va saboq chiqarib yashaydigan xalq o‘zining taraqqiyot yo‘li va kelajagini to‘g‘ri belgilay oladi”, deb ta’kidladi Prezident Sh. Mirziyoyev<sup>4</sup>.

Albatta, tarixni o‘rganish, ajdodlarga munosib avlod bo‘lish-ta’limsiz bo‘lmaydi.

Tarixdan muhim saboqlar chiqarib, kelajak uchun yangi g‘oyalarni kashf qilish-ilm orqali yuzaga keladi. Tarixni o‘rganish orqali shaxslar oldingi avlodlarning tajribalari, yutuqlari va kurashlari haqida qimmatli tushunchalarga ega bo‘ladilar. Bu bilim insoniyat jamiyatni, madaniyatni va sivilizatsiyalarining murakkabliklarini tushunishga yordam beradi. Tarixiy xotira, shuningdek, tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi, chunki u odamlarni asosiy manbalarni tahlil qilishga, turli nuqtai nazarlarni baholashga va dalillarga asoslangan xulosalar chiqarishga undaydi. Bundan tashqari, tarixni o‘rganish o‘quvchilarni turli hikoyalar va tajribalar bilan tanishtirish orqali empatiya va bag‘rikenglikni rivojlantiradi. Bu inson huquqlari, adolat va ijtimoiy taraqqiyotning qadr-qimmatini qadrlashimizga yordam beradi. Shunday ekan, tarixiy xotira odamlarni dunyoning murakkabliklarida harakat qilish, ongli qarorlar qabul qilish va yaxshi kelajakni shakllantirishda faol ishtirok etish uchun vositalar bilan jihozlaydi. Nafaqat qatag‘on siyosati qurbanlari, urush qurbanlari, balki, ilm-fan yo‘lida, xalqni savodli qilish yo‘lida o‘z jonlarini fido qilgan “jadidlar”ni ham unutmasligimiz kerak. Ular oldidagi burchimiz va vazifalarimiz-boshlab berilgan ma‘rifatparvarlik yo‘lini davom ettirib, ularning haqiqiy davomchilari bo‘lish va buyuk maqsadlar sari ildamlab yurishdir. Buning isboti o‘laroq, mamlakatimizda chop etilayotgan “Jadid kulliyoti”<sup>5</sup>, “Jadidlar” to‘plamlarini talabalarga tavsiya etib, ularning hayoti va ijodini chuqur o‘rgangan va o‘rgatgan holda kelajak poydevorini qurishimiz mumkin. Bundan tashqari, buyuk tariximizni o‘zida aks ettiruvchi kitoblar, Prezident asarlari ham nashr etildi, majmualar va muzeylar tashkil etildi. Jumladan:

1. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” asari; (I. Karimov, 1998)
2. “Ikkinchi jahon urushi va front gazetalari” 5 jildlik kitob; (Rustambek Shamsutdinov, 2017)
3. G‘alaba bog‘i” va “Shon-sharaf” muzeyi; (Sh. Mirziyoyev tashabbusi bilan; 2020)
4. “Xotira” kitobi, 33-jild; (1994-yil; 16-mart kunidagi Farmonga muvofiq)
5. “O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” kitob-albomi; (S. Saidolimov, K.Sagdullayev, H.Bobojonov, 2020)
6. ““Xotiralardan o‘rin olgan tarix” uchinchi qism; (G‘aybiddin Fazliyev; Majid Samatov; Iskandar Rahmon; Muqaddas Abdusamatova; 2021)

Shu bilan birga, ularning asarlarini tahlil qilish, turli seminar-konferensiyalar tashkil etgan holda Vatanga muhabbat tuyg‘usini mustahkamlashimiz, hozirgi farovon hayotga erishish yo‘lidagi mashaqqatlarni o‘z zimmalariga olib, jonilaridan kechganliklarini va ular oldidagi burchlarimizni eslatishimiz darkor.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimovning “Shu nuqtayi nazardan qaraganda, hayotni anglash degani-kechagi tarixdan, o‘tmishda sodir bolgan voqeal-hodisalardan to‘g‘ri xulosa chiqarib, ta’bir joiz bo‘lsa, uni bugungi va ertangi kun uchun qollanm a sifatida ishlata olish demakdir.

<sup>4</sup> O‘zbekiston Respublikasi Farmoni; Toshkent sh., 28.01.2022 yildagi PF-60-son;

<sup>5</sup> Oyina.uz; “Zabarjad media”; Shaxnoza Nazarova; Ma’mura Qutliyeva; 2023-yil;

Hozirgi kunda unib-o'sib kelayotgan, ertaga o'rnimizni oladigan yoshamizni o'z otabobolari xotirasiga hurm at-ehtirom ruhida tarbiyalash, o'ylaymanki, bizning nafaqat vazifamiz, avvalambor, insoniy burchimizdir<sup>6</sup> so'zlari ham yuqoridagi fikrlarimizni qo'llab quvvatlaydi.

Bundan tashqari, faxriy urush qatnashchilariga munosib ehtirom ko'rsatish, qulay shartsharoitlar yaratish maqsadida so'nggi yillar mobaynida moddiy yordamlar ham ko'rsatildi.

O'zbekistonning turli hududlarida istiqomat qiluvchi Ikkinci jahon urushi qatnashchilarining muborak Haj ziyoratiga borish bo'yicha bildirgan istaklari hamda "Nuroniy" jamg'armasining taklifi inobatga olinib, ilgari Haj ziyoratiga borolmagan yoki bunga imkon bo'limgan Ikkinci jahon urushi qatnashchilari Prezident tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobidan Haj ziyoratiga yuboriladigan bo'ldi<sup>7</sup>. 2025-yil fevral oyidagi farmonga binoan, g'alabaning 80 yilligi munosabati bilan shu yilning 9-may kuni O'zbekiston Respublikasining Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va nogironlarining har biriga 10 000 AQSH dollari miqdorida bir martalik pul mukofoti bilan rag'batlantirish belgilandi<sup>8</sup>. Bundan tashqari shu yilning fevral oyidagi farmonga binoan, "Ikkinci jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi" esdalik yubiley medali<sup>9</sup> bilan ham taqdirlanadilar.

Yuqoridagi islohotlarga, ehtiromga munosib o'laroq, biz, yoshlar ongida buyuk ajdodlar avlod ekanimizni va ularga mos avlod bo'lib, jahonda o'z o'rnimizni yuksaltirishimizga harakat qilishimiz, boy tariximizni to'g'ri yetkazib ta'lim berishimiz, ularning huzuridagi burchimizni ta'limda erishiladigan yuksak marralar bilan ado etishimiz kerakligini rivojlatirib, targ'ib etishimiz lozimdir.

## REFERENCES

1. Lex.uz; "O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi"; 2007-yil; 1-may;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-
3. 2026 yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni/ <https://lex.uz/pdfs/5841063>;
4. O'zbekiston Respublikas Prezidenti Farmoni; "Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"; 19.02.2025; PF-24-son;
5. O'zbekiston Respublikas Prezidenti Farmoni; "Ikkinci jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi" esdalik yubiley medalini ta'sis etish to'g'risida"; 25.02.25; PF-32;
6. "Tarixiy xotira va inson omili-buyuk kelajagimizning garovidir" kitobi; Islom Karimov; Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti; 2012-yil; 19-bet;
7. President.uz; 2025. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy web-sayti;

<sup>6</sup> "Tarixiy xotira va inson omili-buyuk kelajagimizning garovidir" kitobi; Islom Karimov; Toshkent. "O'zbekiston" nashriyoti; 2012-yil; 19-bet;

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikas Prezidenti Farmoni; "Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"; 04.04.2017; PF-5000-son;

<sup>8</sup> O'zbekiston Respublikas Prezidenti Farmoni; "Ikkinci jahon urushi qatnashchilarini rag'batlantirish to'g'risida"; 19.02.2025; PF-24-son;

<sup>9</sup> O'zbekiston Respublikas Prezidenti Farmoni; "Ikkinci jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi" esdalik yubiley medalini ta'sis etish to'g'risida"; 25.02.25; PF-32

8. “Pediatr” gazetasi; “Tinchlik-farovonlik garovidir”; B.T. Daminov; №:9 (948); 18-may; 2023-yil;
9. Oyina.uz; “Zabarjad media”; Shaxnoza Nazarova; Ma’mura Qutliyeva; 2023-yil;
10. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi; 12-iyun; 2006;
11. shon-sharaf.uz; O‘zbekiston Respublikasi G‘alaba paki va muzeyi rasmiy sayti; 2021-yil;
12. “Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy Markazi” rasmiy veb-sayti; G‘ulom Mirzo; 08.05.2024;
13. Uza.uz; 31.08.2015; Iqtisodiyot; “Ajdodlar xotirasi unutilmaydi”;
14. Международный научный журнал № 7(100), часть 1 «Научный Фокус» “Ma’naviy yetuk shaxsni tarbiyalashda tarixiy xotiraning o‘rni”; Abdurahmonova Malika Tolqunovna; ноября, 2023